

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV KADRLARINI TANLASHNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Ibragimova Sevara Kabildjanovna

Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi

Anatatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Boshqaruv kadrlarining samarali tanlanishi universitetlarning strategik rivojlanishi, ta'lim sifati va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada boshqaruv kadrlari tanlovining asosiy tamoyillari, strategik menejment va inson resurslarini boshqarish nazariyalari asosida shakllangan boshqaruv kontseptsionalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasalari, boshqaruv kadrlarini tanlash, ilmiy-nazariy asoslar, strategik menejment, HR boshqaruvi, kadrlar siyosati, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy bilimlar, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston ta'lim tizimi, xalqaro standartlar.

Аннотация

В данной статье анализируются научно-теоретические основы подбора управленческих кадров в высших учебных заведениях Узбекистана. Эффективный подбор управленческих кадров оказывает непосредственное влияние на стратегическое развитие университетов, качество образования и международную конкурентоспособность. В статье рассматриваются основные принципы подбора управленческого персонала, концепции управления, сформированные на основе теорий стратегического менеджмента и управления человеческими ресурсами.

Ключевые слова: Высшие учебные заведения, подбор управленческих кадров, научно-теоретические основы, стратегический менеджмент, управление персоналом, кадровая политика, инновационные подходы, современные знания, цифровые технологии, система образования Узбекистана, международные стандарты.

Abstract

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the selection of management personnel in higher educational institutions of Uzbekistan. Effective selection of management personnel has a direct impact on the strategic development of universities, the quality of education and international competitiveness. The article discusses the basic principles of selection of management personnel, management concepts formed on the basis of theories of strategic management and human resource management.

Keywords: Higher educational institutions, selection of management personnel, scientific and theoretical foundations, strategic management, personnel management, personnel policy, innovative approaches, modern knowledge, digital technologies, education system of Uzbekistan, international standards.

Kirish

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi o'ringa ega. Mazkur tizimda boshqaruv kadrlari o'quv jarayonini samarali tashkil qilish, ta'lim standartlarini takomillashtirish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash kabi bir qator muhim vazifalarni bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlari nafaqat ma'muriy ishlar yuritish, balki strategik qarorlar qabul qilishda, ta'lim jarayonini yangicha metod va texnologiyalar asosida rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ular rahbarlik qilishdan tashqari, kadrlar salohiyatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va zamonaviy talablarga moslashish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Boshqaruv kadrlarining bilim va malakasi, ularning samarali tanlanishi oliy ta'lim muassasalarining umumiy sifatiga, talabalarning raqobatbardoshligiga va ta'lim jarayonining xalqaro darajadagi natijalarga erishishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlash tizimi va uning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari jadal rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda, bu esa bilimli va malakasi yuqori boshqaruv kadrlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Boshqaruv kadrlarini tanlash nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir qiladi. Zero, oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlarning mavjudligi, universitetning boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish va kelajak avlodga raqobatbardosh bilimlar berishga imkon yaratadi.

Mamlakatning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlashda kadrlarni to'g'ri tanlanishining ahamiyatidir. Ta'lim sifatini xalqaro standartlarga mos ravishda yaxshilash va global ta'lim makonida munosib o'rin egallash uchun boshqaruv kadrlari, avvalo, zamonaviy innovatsion yondashuvlarga ega bo'lishi va global tendentsiyalarni tushunishi lozim.

Shuningdek, jahon tajribasi va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish, malakali kadrlar tanlovini optimallashtirish va institutsional rivojlanishni ta'minlash bilan bevosita bog'liq. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan islohotlardan samarali foydalanish uchun yuqori malakali rahbarlar kerak. Shunday ekan, boshqaruv kadrlarini tanlash tizimini qayta ko'rib chiqish, ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va professional kadrlar rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Asosiy qism

Oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishi va samarali boshqaruvini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlar majmuasi - boshqaruv kadrlarini tanlash kontseptsiyasini anglatadi. Mazkur kontsepsiya asosida yuqori malakali va kompetent rahbarlarni tanlash, ularni tayyorlash hamda joy-joyiga qo'yish jarayoni tashkil etiladi. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini to'g'ri tanlash universitetning strategik rivojlanishini, ta'lim sifati va innovatsion faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

Boshqaruv kadrlarini tanlash kontseptsiyasi bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Malaka va kompetentlik tamoyili. Boshqaruv kadrlarini tanlashda ularning bilim, malaka va ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu rahbarlar strategik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, jamoani samarali boshqara olishi, muammolarni hal qilish va yangi imkoniyatlarni yaratish yo'llarini bilishi lozim. Oliy ta'lim muassasasining maqsad va vazifalariga mos keladigan boshqaruv kompetentsiyalarini aniqlash, boshqaruvchilar tanlovida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ilmiy-pedagogik salohiyat tamoyili. Boshqaruv kadrlari oliy ta'lim muassasasining pedagogik jarayonlari va ilmiy tadqiqotlarini ham yaxshi bilishi kerak. Ular nafaqat boshqaruv funktsiyalarini bajarishlari, balki ta'lim va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shishlari muhimdir. Bu rahbarlar yangiliklar yaratishga qodir bo'lishi va ta'lim jarayonini ilmiy yangilanishlar bilan boyitishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Innovatsion yondashuv tamoyili. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlari doimo o'zgarib borayotgan global tendentsiyalar va texnologiyalardan foydalana olishi kerak. Innovatsiyalarni joriy qilish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbarlar tanlovda yuqori baholanadi. Ular zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llab, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qodir bo'lishi zarur.

Etik tamoyil. Boshqaruv kadrlarini tanlashda ularning professional va shaxsiy etikasi muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasasi rahbarlari qat'iy qoida va printsiplarga rioya qilishi, korruptsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik bilan ishlashda o'rnak ko'rsatishi lozim. Etik normalarga amal qilish boshqaruv jarayonining barqarorligini ta'minlaydi.

Raqobatbardoshlik va xalqaro tajriba tamoyili. Xalqaro tajriba va tendentsiyalarni tushunadigan rahbarlarni tanlash universitetlarning jahon ta'lim makonida o'z o'rnini mustahkamlashga imkon beradi. Boshqaruv kadrlarining xalqaro maydonda samarali ishlash qobiliyati, ularning ko'p til bilishi va xalqaro hamkorliklardagi tajribasi ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

Ushbu kontsepsiya asosida kadrlar tanlovi ilmiy va amaliy asoslarga ega bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Rejali tanlash jarayoni rahbarlarning o'quv jarayonini samarali boshqarishga qodir bo'lishini va oliy ta'limning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi.

Boshqaruv kadrlarining asosiy xususiyatlari:

Strategik fikrlash qobiliyati. Boshqaruv kadrlari ta'lim muassasasi rivojlanish strategiyasini aniqlash va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan strategik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu qobiliyat rahbarlarga uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, mavjud resurslarni samarali taqsimlash va ta'lim jarayonining uzluksiz rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Yetakchilik va jamoani boshqarish ko'nikmalari. Samarali yetakchi bo'lish boshqaruv kadrlarining muhim xususiyatlaridan biridir. Ular jamoani ilhomlantirish, kadrlarning professional rivojlanishiga yordam berish, murakkab qarorlarni qabul qilish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Innovatsion yondashuv. Ta'lim va boshqaruvda zamonaviy innovatsiyalardan foydalana olish qobiliyati boshqaruv kadrlarining yana bir muhim xususiyatidir. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar, elektron ta'lim va yangi boshqaruv modellarini joriy qilish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kommunikativ ko'nikmalar. Boshqaruv kadrlari samarali aloqa o'rnatish, universitet jamoasi, talabalar, ta'lim berish xodimlari, davlat organlari va xalqaro hamkorlar bilan muloqotda bo'lishi zarur. Kommunikativ ko'nikmalar rahbarlarga kelishmovchiliklarni hal qilish va tizimdagi barcha ishtirokchilar o'rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Etik va professional me'yorlarga rioya qilish. Professional etika va shaffoflik boshqaruv kadrlari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega. Ular korruptsiyaga qarshi kurashish, universitetning barqarorligi va jamoatchilikka ochiqqligini ta'minlash bo'yicha namuna bo'lishi kerak. Bu xususiyatlar universitetning obro'sini oshirishga yordam beradi.

Boshqaruv kadrlarining asosiy vazifalari:

Ta'lim jarayonini boshqarish. Boshqaruv kadrlarining asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishdir. Ular ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ularning sifatini nazorat qilish va yangilash, talabalar uchun qulay o'quv muhitini yaratishda faol ishtirok etadilar. Ta'lim jarayonining xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil qilinishi boshqaruv kadrlarining mas'uliyati hisoblanadi.

Kadrlar siyosatini yuritish. Boshqaruv kadrlari universitet jamoasini shakllantirish, kadrlarni tanlash va ularning malakasini oshirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular xodimlar o'rtasida samarali hamkorlik muhitini yaratish, ularning kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish va motivatsiya berish vazifasini ham bajaradilar.

Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ham boshqaruv kadrlarining asosiy vazifalaridan biridir. Ular byudjetni shakllantirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va resurslarni samarali taqsimlashda mas'uldirlar.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Boshqaruv kadrlari universitetning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirishga mas'uldirlar. Ular ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, tadqiqotchilarga zarur shart-sharoitlarni yaratish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy qilishda ishtirok etadilar.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Boshqaruv kadrlarining vazifalaridan yana biri universitetning xalqaro hamkorliklarini kengaytirish va xalqaro ta'lim makonidagi nufuzini oshirishdir. Ular xalqaro shartnomalar tuzish, talabalar va o'qituvchilarning almashinuv dasturlarini tashkil qilish va jahon universitetlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ishlarida faol qatnashadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlash jarayonini takomillashtirish mamlakatning ta'lim tizimini rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashishda hal qiluvchi omil bo'ladi. Talabgorlarning zamonaviy bilimlar va innovatsiyalarga egaligini ta'minlash, jahon tajribasini o'rganish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda shaffoflik, etika va davlat-hususi hamkorlikning kuchaytirilishi asosiy omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altbach, P. G., & Salmi, J. (2011). "The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities". Washington, D.C.: The World Bank.
2. Armstrong, M. (2006). "A Handbook of Human Resource Management Practice". London: Kogan Page.
3. Goh, C.T. (1997). "Shaping Our Future: Thinking Schools, Learning Nation". Singapore: Ministry of Education.
4. MEXT (Ministry of Education, Culture, Sports, Science, and Technology). "Educational Reform in Japan". URL: <https://www.mext.go.jp>
5. Mintzberg, H., Ahlstrand, B., & Lampel, J. (1998). "Strategy Safari: A Guided Tour Through The Wilds of Strategic Management". New York: Free Press.
6. Sahlberg, P. (2011). "Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?". New York: Teachers College Press.